



TERMINOLOGICAL POLICY AND STAGES OF TERM FORMATION AT THE IRANIAN ACADEMY OF LANGUAGE AND LITERATURE

Nafisakhon Jumayeva

Master's Degree Student (1st Year)

Higher School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

N. N. Nuriddinov

Associate Professor, PhD

Higher School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: persian language, Academy of Persian Language and Literature, terminological policy, term formation, scientific terms, language policy, standardization.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes the terminological policy of the academy of Persian language and literature, the principles of scientific term formation, and the main stages of terminology development. The study examines the academy's activities aimed at developing the Persian language, forming scientific and technical terms on the basis of the national language, and standardizing them. The article systematically analyzes the stages of term selection, discussion, approval, and implementation in practice. The results of the research show that the academy plays an important role in enriching the scientific style of the Persian language, creating national terms instead of foreign borrowings, and regulating the terminological system. This study serves as an important academic source for examining terminological policy and the processes of term formation in Persian linguistics.

ERON TIL VA ADABIYOT AKADEMIYASIDA TERMINOLOGIK SIYOSAT VA TERMIN YARATISH BOSQICHLARI

Nafisaxon Jumayeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

1-kurs magistratura bosqichi talabasi

Toshkent, O'zbekiston

N. N. Nuriddinov

TDSHU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti, PhD

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: fors tili, Fors tili va adabiyoti akademiyasi, terminologik siyosat, termin yaratish, ilmiy terminlar, til siyosati, standartlashtirish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eron til va adabiyot akademiyasining terminologik siyosati, ilmiy terminlarni yaratish tamoyillari hamda termin ishlab chiqish jarayonining asosiy bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda akademiyaning fors tilini rivojlantirish, ilmiy-texnik terminlarni milliy til asosida shakllantirish va ularni standartlashtirish borasidagi faoliyati ko'rib chiqiladi. Maqolada terminlarni tanlash, muhokama qilish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish kabi bosqichlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, akademiya faoliyati fors tilining ilmiy uslubini boyitish, xorijiy o'zlashmalar o'rniga milliy terminlarni yaratish va terminologik tizimni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur ish fors tilshunosligida terminologiya siyosati va termin yasash jarayonlarini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА И ЭТАПЫ СОЗДАНИЯ ТЕРМИНОВ В АКАДЕМИИ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИРАНА

Нафисахон Жумаева

Студентка магистратуры 1 курса

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Н. Н. Нуриддинов

Доцент, PhD,

Высшая школа иранистики и афганистики,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: персидский язык, Академия персидского языка и литературы, терминологическая политика, создание терминов, научные термины, языковая политика, стандартизация.

Аннотация: В данной статье анализируются терминологическая политика Eron til va adabiyot akademiyasi, принципы создания научных терминов и основные этапы разработки терминологии. В исследовании рассматривается деятельность академии по развитию персидского языка, формированию научно-технических терминов на основе национального языка и их стандартизации. В

статье системно анализируются этапы отбора терминов, их обсуждения, утверждения и внедрения в практику. Результаты исследования показывают, что деятельность академии играет важную роль в обогащении научного стиля персидского языка, создании национальных терминов вместо иностранных заимствований и упорядочении терминологической системы. Данная работа может служить важным научным источником при изучении терминологической политики и процессов образования терминов в персидском языкознании.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida har bir milliy tilning rivoji ko'p jihatdan uning ilmiy-texnik sohalarda faol qo'llanishi va zamonaviy terminologik tizimga ega bo'lishiga bog'liq. Ilm-fan va texnologiyaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi yangi tushunchalar va atamalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shu sababli har bir til ushbu yangi tushunchalarni ifodalash uchun mos terminlarni yaratish, ularni tartibga solish va standartlashtirish zaruratiga duch keladi. Terminologik siyosat aynan shu jarayonlarni muvofiqlashtirish, milliy tilning ilmiy imkoniyatlarini kengaytirish hamda xorijiy o'zlashmalarning me'yoriy qo'llanishini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr boshlarida Eron jamiyatida modernizatsiya va ilm-fan sohasining rivojlanishi natijasida yangi tushunchalar va terminlar yaratish zaruriyati yuzaga keldi. Shu bilan birga, xorijiy so'zlarning ko'pligi tilning milliy qiyofasiga tahdid solishi mumkin edi. Bu holat fors tilining standartlashtirilishi va yangi so'zlarning yaratish mexanizmlarini ilmiy asosda belgilash ehtiyojini keltirib chiqardi. Mazkur ehtiyojlar natijasida 1935-yilda Fors tili va adabiyoti akademiyasi tashkil etildi. Fors tilida terminologik tizimni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida Farhangestān-e Zabān va Adab-e Fārsi muhim ilmiy va amaliy rol o'ynaydi. Mazkur akademiya fors tilini rivojlantirish, ilmiy va texnik terminlarni milliy til asosida yaratish, ularni muvofiqlashtirish hamda amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanuvchi asosiy ilmiy muassasalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Farhangestān-e Zabān va Adab-e Fārsi faoliyati misolida terminologik siyosatning asosiy yo'nalishlarini hamda termin yaratish jarayonining bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida akademiyaning terminologiya sohasidagi faoliyati, termin tanlash va yaratish tamoyillari hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Mazkur masalalarni o'rganish fors tilining zamonaviy terminologik tizimini shakllantirish jarayonini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Fors tili va adabiyoti akademiasining tashkil topish tarixi va termin yaratish bosqichlari. Fors tilini xorijiy ta'sirlardan, ayniqsa arabcha o'zlashmalardan tozalash va standartlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar XIX asr oxirlarida, Qojarlar sulolasi davrida, eronlik

ziyolilar orasida kuchaygan millatchilik kayfiyatlari fonida yuzaga keldi. Ushbu tashabbuslar millatchilar guruhiga mansub oz sonli ziyolilar tomonidan ilgari surilib, ular G'arb va Usmonli modernizatsiyasi ta'siriga javoban madaniy o'zlikni mustahkamlash maqsadida fors tilining mahalliy, islomgacha bo'lgan ildizlarini qayta tiklashga intildilar. Garchi bu harakatlar rasmiy institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan bo'lsa-da, ular keyinchalik amalga oshirilgan tizimli islohotlar uchun mafkuraviy asos yaratdi va islomdan oldingi fors lug'aviy qatlamiga tayangan yangi so'zlar yaratish g'oyasini ilgari surdi .

1935-yilda tashkil topgan Birinchi akademiya 1941-yilning oxirlariga kelib, Eron til va adabiyot akademiyasi amalda – o'z faoliyatini butunlay to'xtatdi. Lekin fors tilini “tozalash” harakatlari kelasi yillarda ham rivojlanishda davom etdi. 1970-yil 31-oktyabrda Rezo shohning farmoni bilan Eron til akademiyasi tashkil qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra, 70-yillar boshida Akademiya tomonidan o'zlashma so'zlarga 6650 ta forscha muqobil so'zlar taklif qilingan . Akademiya a'zolari “buyuk fors tili”ni yaratish va uni begona turk-mo'g'il, arabcha va yevropacha so'zlardan “tozalash” harakatini olib borishdi. Shaharlarning eskicha nomlari va asl forscha bo'lmagan boshqa geografik nomlar ham o'zgartirildi. Ularning o'rniga qadimiy forscha so'zlar kiritildi yoki sun'iy yo'l bilan yangi so'zlar yaratildi. Ularning ba'zilar til leksikasidan mustahkam o'rin egalladi. Masalan: arabcha بلدية → forscha شهرداری “shahar hokimiyati”, arabcha دار الفنون → forscha دانشگاه “universitet”, turkcha قشون → forscha ارتش “armiya” .

Islom inqilobidan so'ng 1370 hijriy – shamsiy (ya'ni 1991 milodiy) yilda uchinchi “Fors tili va adabiyoti akademiyasi” o'z faoliyatini boshladi. Bu akademiya oldingi ikki akademiyaning ilmiy tajribasini davom ettirish maqsadida tuzilgan. Ushbu akademiya yuqoridagi ikki akademiya faoliyatidan to'g'ri xulosalar chiqargan holatda, o'z faoliyatini jamiyatning turli-tuman sohalariga oid tushunchalarga mos so'zlarni tanlash bilan boshladi. 1997-yilda akademiya tomonidan “So'zlarni tanlash qoidalari va usullari” nomli to'plam nashr qilinib, unda fors tilidagi o'zlashmalar o'rniga asl forscha so'zlarni yasash va tanlash usullari bayon qilingan.

Akademiya tarkibida bir nechta ilmiy bo'limlar va terminologiya guruhlari faoliyat yuritadi. Har bir guruh ma'lum bir fan sohasiga tegishli terminlarni ishlab chiqadi. Hozirda akademiya qoshida o'nlab terminologiya guruhlari mavjud bo'lib, ular tibbiyot, muhandislik, iqtisod, kompyuter texnologiyalari va boshqa sohalarga oid terminlarni ishlab chiqadi. Shuningdek, akademiya Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyat yuritadi. Bu kengash turli guruhlar tomonidan taklif qilingan terminlarni muhokama qilib, tasdiqlaydi.

“Fors tili va adabiyot akademiyasi” tomonidan taklif qilingan so'zlar ommaviy axborot vositalari va maxsus to'plamlarda nashr qilinib, 6 oy ichida jamoatchilik fikri o'rganilgan. Yuqoridagi jarayonlardan so'ng so'zlar akademiya tomonidan tasdiqlanib, mamlakat prezidentiga taqdim qilingan. Yangi taklif qilingan so'zlar fan va texnikaning 17 sohasini qamrab olganligi ham diqqatga

sazovordir. Ularning asl kelib chiqishi ingliz, fransuz va nemis tillariga borib taqaladigan xalqaro soʻzlar ham mavjud. Shu oʻrinda A.Quronbekov oʻz maqolasida akademi anstitu, test, āperator, e-mail, bulleten, fāks, catalog kabi barcha tillarda keng ishlatiluvchi soʻzlarni milliy soʻzlarga oʻzgartirishga urinishlar deyarli yoʻqligini taʼkidlaydi. Ammo, ayrim tillarda ular oʻzlashtirilganligini aytib, arab tili miqyosida oʻz fikrini tasdiqlaydi: Majmaʼ ul-ilmi – “akademiya”, maʼhad – “institut”, ixtibar- “test”, aʼmil - “operator”, al-barid - “e-mail”, fihris - katalog.

Yu.A. Rubinchik uchinchi akademiyaning faoliyati haqida gapirar ekan, quyidagi xulosalarni bildirgan: “...uchinchi akademiyaning paydo boʻlganiga bir necha yillar boʻlganiga qaramay, uning ilmiy va amaliy xulosalari, faoliyati Eron jamiyatiga yaxshi tanish emas. Nazarimizda, Akademiya faollari, uning haqiqiy aʼzolari avvalgi ikki akademiylarning xatolarini qaytarib qoʻyishdan choʻchiydilar. Shuning uchun ham yaratilayotgan har bir terminning nashri ustida jiddiy bosh qotirmoqdalar” .

1379-1383 h.sh. (2000-2004 milodiy) va 1382-1385 h.sh. (2003-2006 milodiy) yillarda akademiya tomonidan tasdiqlangan soʻzlar lugʻatining ikkinchi va uchinchi jildlariga kiritilgan. Ushbu lugʻatning kirish qismida “Eron til va adabiyot akademiyasi”ning oʻsha vaqtdagi raisi Hasan Habibiy tomonidan yangi soʻzning yasashidan tortib, uning tasdiqlanishigacha boʻlgan jarayonlarga batafsil toʻxtalib oʻtilgan. Ushbu jarayon jami 14 bosqichdan iborat ekanligi taʼkidlangan .

Akademiya tomonidan chop etilgan lugʻatning 1-jildining muqaddimasida taʼkidlanishicha, hozirgi kunda akademiya tarkibida 50 ga yaqin soʻz yasash bilan shugʻullanuvchi guruhlar oʻz faoliyatini olib bormoqda . Bundan koʻrinib turibdiki, hozirgi kunda ham “Eron til va adabiyot akademiyasi”da soʻz yasash jarayonlari qizgʻin davom etmoqda.

Soʻz tanlash guruhi Fors tili va adabiyoti akademiyasi tashkil etilganidan beri faoliyat yuritayotgan guruhlardan biridir. Dastlabki bosqichlarda soʻz tanlash uchun muayyan qoidalar va tamoyillar ishlab chiqish zarurati tugʻildi. Shu sababli atama yaratish guruhi faoliyatining boshida bir qator asosiy tamoyillar ishlab chiqildi va tasdiqlanishi uchun Akademiya kengashiga taqdim etildi. Atama yaratish guruhi dastlab oz sonli tadqiqotchilar bilan oʻz faoliyatini boshladi. Ularning asosiy vazifasi xorijiy soʻzlarga fors tilida mos muqobillar topish edi. Ushbu ish 1374-yil boshlarida kengroq yoʻlga qoʻyildi. Bu jarayon davomida xalq orasida keng qoʻllaniladigan xorijiy soʻzlarga fors tilida mos muqobillar ishlab chiqildi. Bu ishning natijalari ikki jilddan iborat umumiy atamalar toʻplamida jamlanib, prezident tasdigʻidan oʻtgach, barcha davlat muassasalariga eʼlon qilinadi .

Akademiya tomonidan ishlab chiqilgan soʻzlarni tanlash jarayonining asosiy bosqichlari haqida qisqacha maʼlumotlar mavjud. Birinchi bosqich ixtisoslashgan guruhni tashkil etish va muayyan ilmiy soha uchun alohida lugʻat tuzishni oʻz ichiga oladi. Atamalar turli manbalardan, jumladan lugʻatlar, ensiklopediyalar, darsliklar va ilmiy nashrlardan yigʻib olinadi. Soʻngra guruh aʼzolari ushbu atamalarni tasniflaydi va Akademiya belgilagan ustuvorliklarga asoslanib, ularni

ko‘rib chiqadi hamda muqobil variantlarni taklif qiladi. Ixtisoslashgan guruh to‘plangan atamalar orasidan avvalo fors tilida keng qo‘llaniladigan va mutaxassislar o‘rtasida umumiy kelishuv mavjud bo‘lgan muqobillarni tanlab chiqadi. Agar bu muqobillar ilmiy fors tilida keng qo‘llanilsa va mutaxassislar tomonidan qabul qilingan bo‘lsa, ular so‘zlarni tanlash kengashida ko‘rib chiqilib, ustuvorlik asosida tasdiqlanadi. Akademiya ushbu atamalarni tavsiya sifatida nashr etishga harakat qiladi. Keyingi bosqichda guruh fors tilida bir nechta muqobili mavjud bo‘lgan yoki ilmiy til nuqtai nazaridan bahsli bo‘lgan atamalarni ko‘rib chiqadi. Shuningdek, fors tilida muqobili mavjud bo‘lmagan atamalar ham alohida tahlil qilinadi.

Texnologiya kun sayin rivojlanib borayotganligi sababli, so‘nggi yillarda fors tili ham ko‘plab yangi terminlarning kirib kelishi bilan yuzlashmoqda. Shu sababli, bu tilga kirib kelayotgan xorijiy terminlar uchun muqobil forscha atamalar ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lgan.

Mazkur ish jarayonida avvalo xorijiy termin va uning boshqa tillardagi muqobillari o‘rganiladi. So‘ngra ushbu terminning etimologiyasi, semantik xususiyatlari va u bilan bog‘liq hosila hamda birikma shakllari tahlil qilinadi. Shundan keyin terminning grammatik kategoriyasi aniqlanadi va uning ta‘rifi nufuzli lug‘atlardan hamda internet ma‘lumotlar bazalaridan olinadi.

Natijada, termin uchun yakuniy ta‘rif ishlab chiqilib, maxsus ishchi guruh tomonidan muhokama qilinadi. Shuningdek, fors tilida shu ma‘noda qo‘llanib kelayotgan boshqa so‘zlar ham akademiya lug‘atlaridan va boshqa ixtisoslashgan ikki tilli lug‘atlardan izlab topiladi.

Mazkur ishchi hujjat tadqiqotchilar va ixtisoslashgan guruh a‘zolarining mehnati natijasida tayyorlanadi va termin uchun mos muqobil so‘z tanlash maqsadida yig‘ilishlarda muhokama qilinadi. Agar zarur bo‘lsa, guruh a‘zolari qo‘shimcha manbalarga murojaat qilib, termin uchun eng maqbul muqobil variantni tanlaydilar.

Shundan so‘ng tanlangan termin muvofiqlashtiruvchi ilmiy kengashga yuboriladi .

Ikkinchi bosqichda terminlar terminologiya kengashida ko‘rib chiqiladi. Ushbu kengash a‘zolari turli ilmiy sohalar mutaxassislaridan iborat bo‘lib, odatda terminlar ro‘yxati yig‘ilishdan oldin ularga beriladi, shunda ular ularni yetarli darajada o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar.

Agar termin faqat bitta soha bilan bog‘liq bo‘lsa, kengash a‘zolari odatda uni qayta muhokama qilmaydi, faqat zarur bo‘lsa uni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Agar bir termin turli ilmiy sohalarda turli ma‘nolarda qo‘llansa, kengash a‘zolari har bir soha uchun alohida muqobil terminlarni qabul qilishlari mumkin. Agar bir termin turli fanlarda bir xil ma‘noni ifodalasa, u holda barcha sohalar uchun yagona muqobil termin tanlashga harakat qilinadi. Biroq ba‘zi hollarda terminlar turli sohalarda avvaldan shakllangan birikmalar tarkibida qo‘llanib kelgan bo‘lishi mumkin, bu esa ularni muvofiqlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Shunga qaramay, terminologiya kengashi terminlarni imkon qadar muvofiqlashtirishga harakat qiladi.

Har bir termin tegishli ilmiy soha bo'yicha ishonchli lug'atlar asosida ajratiladi va boshqa fan sohalari ham inobatga olingan holda termin tanlash kengashiga taqdim etiladi. Tegishli asosiy fan vakillari o'z fikrlarini bildirgach, terminlar qayta ko'rib chiqish uchun guruhga qaytariladi.

Uchinchi bosqichda guruh a'zolari terminlarni yana bir bor ko'rib chiqadilar va imkon qadar termin tanlash kengashi fikrlariga moslashtiradilar. Agar ayrim terminlar bo'yicha kengash bilan kelishuvga erishilmasa, ular vaqtincha ro'yxatdan chiqariladi va yanada aniqroq tekshiruv o'tkazish uchun alohida ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng terminlar texnik hay'atga yuboriladi.

To'rtinchi bosqichda texnik hay'at guruh rahbarlari va maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Bu hay'at ishchi hujjatlarni turli jihatdan o'rganadi. Agar hujjatlarda termin tuzilishi yoki taklif etilgan muqobil variantlarda grammatik yoki tuzilma nuqtai nazaridan kamchiliklar mavjud bo'lsa, guruhdan ularni qayta ko'rib chiqish va tuzatishni talab qiladi. Terminlar to'plami Akademiya vakili ishtirokida muhokama qilinadi va zarur tuzatishlar vakil orqali guruhga yetkaziladi.

Beshinchi bosqichda guruh texnik hay'atning fikrlarini yana bir bor ko'rib chiqadi va zarur tuzatishlardan so'ng terminlarni termin tanlash kengashiga taqdim etadi.

Oltinchi bosqichda termin tanlash kengashi odatda ishchi hujjatlarni to'rt hafta davomida bir necha mutaxassis va Akademiya vakillari ishtirokida ko'rib chiqadi. Kengash termin ma'nosi va uning yasaliş usuliga e'tibor qaratadi hamda zarur bo'lsa, guruhga tuzatishlar yoki tavsiyalar beradi. Agar guruh taklif qilgan termin ma'noga to'liq mos kelmasa, kengash o'z takliflarini bildiradi va guruhga muhokama qilish uchun imkon beradi. Kengash dastlabki tasdiqdan so'ng terminlarni yana guruhga qaytaradi, shunda keyingi bosqichlarga tayyorlash mumkin bo'ladi.

Yettinchi bosqichda termin tanlash kengashi bildirilgan fikr va tuzatishlarni ko'rib chiqadi, ta'riflarni qayta tekshiradi hamda ularni xabarnomada e'lon qilish va mutaxassislar hamda tegishli markazlarning fikrlarini olish uchun tayyorlaydi.

Sakkizinchi bosqichda akademiya tomonidan har oy chop etiladigan xabarnomada odatda bir yoki ikki termin guruhi e'lon qilinadi. Terminlar ta'riflari va termin tanlash kengashi taklif qilgan muqobillari bilan birga beriladi. Shu bilan birga, tegishli soha mutaxassislari, tashkilotlar va markazlarning ro'yxati ham keltiriladi. Ushbu ro'yxat termin tanlash idorasi ixtiyorida bo'ladi, shunda terminlar kengashda muhokama qilinganidan so'ng mutaxassislar fikri olinadi.

Shuningdek, xabarnomada e'lon qilish bilan birga, terminlar mutaxassislar va tegishli tashkilotlar, ilmiy markazlar hamda universitetlarga ham yuboriladi. Ushbu terminlar bo'yicha fikr bildirish muddati odatda uch oydan olti oygacha bo'ladi. Olingan fikrlar ko'rib chiqish uchun guruh vakiliga topshiriladi.

To'qqizinchi bosqichda belgilangan muddat ichida termin tanlash idorasiga kelib tushgan fikrlar guruhda ko'rib chiqiladi. Agar yuborilgan takliflar orasida maxsus guruh taklifidan ko'ra ma'noga mosroq muqobil variant bo'lsa, guruh o'z taklifini qayta ko'rib chiqadi va yangi variantni

qabul qiladi. Agar taklif etilgan muqobil yangi bo'lsa va ilgari hech bir manbada qayd etilmagan bo'lsa, guruh va kengash uni qabul qilgan taqdirda, tasdiqlangan hujjatda uni taklif qilgan shaxsning nomi ham ko'rsatiladi .

Avval aytilganidek, 1983-yil oxirida terminlarni ko'rib chiqish jarayonida Akademiya kengashidagi o'n to'rt bosqichli tizim qisqartirildi va faqat tasdiqlash bosqichi sinov davridan o'tgandan keyin amalga oshiriladigan tartib joriy qilindi. Bu o'zgarish terminlar bo'yicha qarorlar faqat Akademiya kengashi majlislaridagi muhokamalarning bir qismi ekanligini ko'rsatadi va yakuniy ko'rib chiqish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, Akademiya taklifiga ko'ra va Oliy madaniy inqilob kengashining roziligi bilan terminlarning sinov tariqasida tasdiqlanishi termin tanlash kengashiga topshirildi. Termin tanlash kengashi tomonidan tasdiqlangan terminlar esa Respublika prezidentiga taqdim etiladi. O'ninchi bosqichda Akademiya kengashi terminlarning sinov tariqasida qo'llanish muddatini belgilaydi. Ushbu terminlar Prezidentga taqdim etiladi va Prezident tasdiqlaganidan so'ng ular rasmiy kuchga ega bo'ladi.

O'n birinchi bosqichda Prezident terminlar bo'yicha o'z fikrini Akademiyaga bildiradi.

O'n ikkinchi bosqichda agar hujjat Prezident tomonidan tasdiqlansa, u darhol chop etiladi va yetarli nusxalarda Prezident devoni birinchi o'rinbosari idorasiga topshiriladi. U yerdan barcha davlat tashkilotlariga belgilangan muddat davomida foydalanish uchun yuboriladi. Termin tanlash guruhi ham ushbu hujjatlarni tegishli markazlarga alohida yuboradi va ularni Akademiya kitob do'konlarida keng jamoatchilikka taqdim etadi.

O'n uchinchi bosqichda terminlar uchun belgilangan sinov muddati davomida mutaxassislar va ilm-fan vakillarining fikrlari to'planadi hamda zarur bo'lsa, terminlar qayta ko'rib chiqiladi.

O'n to'rtinchi bosqichda tasdiqlangan terminlar alohida risola (to'plam) ko'rinishida chop etiladi. Hozirgacha turli ilmiy va ixtisoslashgan sohalarga oid 70 dan ortiq risola nashr etilgan. Ularning har biri alohida kitobcha sifatida chop etilgan. Akademiya kutubxonasida ushbu tasdiqlangan terminlarning 38 ta to'plami mavjud bo'lib, ushbu kitob ham shular jumlasiga kiradi. Akademiya kengashining qaroriga ko'ra, ushbu lug'atda keltirilgan terminlardan foydalanish muddati besh yil qilib belgilangan .

Ba'zan Akademiya bir xorijiy termin uchun bitta muqobil tasdiqlaydi. Ba'zan esa bir nechta muqobil variant tasdiqlanadi. Bunday hollarda birinchi variant ustuvor hisoblanadi. Agar tasdiqlangan termin Eronga xos shaklda berilgan bo'lsa, uning ma'nosi shuki, ushbu termin eroniy shaklda saqlanishi yoki ayrim hollarda qisqartirilishi mumkin. Ba'zi terminlar talaffuzdagi qiyinchiliklarning oldini olish uchun arablashtirilgan shaklda ham berilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim ilmiy sohalarda terminlarning yozilishi Akademiya qoidalariga to'liq mos kelmasligi ham mumkin.

Termin tanlash jarayonida muqobil termin tanlashdan oldin terminning ta'rifini bir yoki bir nechta ishonchli lug'atlardan olinadi. Keyinchalik mutaxassislar fikrini hisobga olgan holda yakuniy ta'rif shakllantiriladi. Ba'zi tasdiqlangan muqobillar yangi yaratilgan terminlar bo'lganligi sababli, ularning tuzilishi va ma'nosi ta'rif orqali aniq tushuntirilishi zarur bo'ladi. Mutaxassis guruhlar tomonidan taklif qilingan ta'riflar Akademiya tavsiyasi asosida soddalashtirilib, ilmiy darajasi bakalavr darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar uchun ham tushunarli bo'lishiga harakat qilingan. Ba'zi ta'riflarda terminning lotincha shakli qavs ichida berilgan. Bu esa ushbu termin hali Akademiya tomonidan yakuniy tasdiqlanmaganini va faqat mutaxassislar guruhi tomonidan taklif etilganini bildiradi. Ba'zi ta'riflarda muayyan sohada keng qo'llanadigan terminlar keltirilgan. Ularning lotincha shaklini takrorlash ortiqcha bo'lgani uchun bu ba'zan berilmaydi. Agar bitta forscha termin turli sohalarda turli ma'noga ega bo'lsa, u holda har bir soha uchun alohida ta'rif beriladi va soha nomi ta'rif boshida ko'rsatiladi. Akademiya har doim mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikr va takliflarni qabul qilishga tayyor ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu lug'atni tayyorlash jarayonida termin tanlash guruhi olimlari va mutaxassislar katta mehnat qilganlar. Ularning barchasiga chuqur minnatdorchilik bildiriladi. Shuningdek, ayrim hamkorlar qo'shimcha mehnat qilib, matnlarni tartibga keltirish va tayyorlashda katta yordam ko'rsatganlar. Jumladan: Mehrnush Tehroniy, Rofat Rafiy, Farzona Saxoiy, Shukuh Sodot Mirforsiy. Ular matnlarni diqqat bilan tekshirib, ushbu to'plamning tayyorlanishiga katta hissa qo'shganlar.

Xulosa

1. Birinchi akademiya fors tilini institutsional himoya qilishning ilk modelini yaratdi va milliy terminologik siyosatning nazariy poydevorini shakllantirdi.
2. Ikkinchi akademiya terminologik faoliyat ko'lamini kengaytirdi hamda tilni g'arbiy o'zlashmalardan tozalash (purizm) siyosatini yuritdi, biroq tarixiy omillar sababli barqaror natijadorlikka erisha olmadi.
3. Uchinchi Fors tili va adabiyoti akademiyasi (1991-yildan keyingi bosqich) terminologiya yaratish jarayoniga zamonaviy, qat'iy ilmiy va tizimli yondashuvni joriy etdi.
4. Eron tili va adabiyoti akademiyasi fors tilini me'yorlashtirish va rivojlantirish bo'yicha mamlakatdagi yagona oliy ilmiy markaz hisoblanadi.
5. Akademiya termin ijodkorligi ko'p bosqichli (yig'ish, tahlil, muqobil yaratish, muhokama va tasdiqlash) murakkab va algoritmlashgan tizim asosida amalga oshiriladi.
6. Xorijiy atamalarga forscha muqobil topishda etimologik, semantik va grammatik tahlillarning o'tkazilishi tilning ichki imkoniyatlarini saqlab qolishdagi bosh vazifa etib belgilangan.
7. Yangi terminlar ilmiy hamjamiyat va universitetlar filtri orqali o'tishi hamda bevosita Prezident tasdig'idan so'nggina rasmiy maqom va majburiy kuchga ega bo'lishi shart.

8. Tasdiqlangan terminlarning maxsus lugʻatlar va davlat koʻrsatmalari orqali muomalaga kiritilishi fors tili ilmiy bazasini unifikatsiya qilish (bir xillashtirish) va tartibga solishning asosiy vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Salayev D.S, Qodirov Z.M. Oʻrganilayotgan mamlakat tarixi (Eron). – T.: TDSHU, 2020.
2. Jazayeri Mohammad Ali.Farhangestān. Encyclopaedia Iranica. December 15.1999.
3. Рубинчик Ю. А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: “Восточная литература” РАН, 2001.
4. Nuriddinov N. The role of Iranian Academies of language and literature in the development of Persian lexicon // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. – USA, Philadelphia, 2022.
5. Каменева М.С. О деятельности двух академий языка Ирана и некоторых инновациях в лексике персидского литературного языка. //Развития языков в странах Зарубежного Востока. – М., 1983.
6. Куронбеков А. Проблемы формирования научно-технической терминологии в современном персидском языке. //вопросы филологии. – М., 2003.
7. فرهنگ واژه های مصوب فرهنگستان. دفتر اول. گروه نشر آثار. تهران، ۱۳۸۳.
8. فرهنگ واژه های مصوب فرهنگستان دفتر دوم. گروه نشر آثار. تهران، ۱۳۸۴.